

# O'zbekiston Bosh shamol elektr stansiyasi

<b>Mamlakat:</b>	O'zbekiston
<b>Loyiha raqami:</b>	52772
<b>Faoliyat sohasi:</b>	Energetika
<b>Bildirishnoma turi:</b>	Xususiy
<b>Ekologik toifasi:</b>	A
<b>Tasdiqlanish muddati sanasi:</b>	2022-yil, 19-oktabr
<b>Qaysi bosqichdaligi:</b>	Tasdiqlangan
<b>Loyihaning qisqacha mazmuni chop etilgan sana:</b>	2022-yil, 15-sentabr

## Loyiha mazmuni

O'zbekistonning Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida 500 MVt quvvatli Bosh shamol elektr stansiyasi (SHES) loyihasini ishlab chiqish, uni loyihalash, qurish va ishga tushirishni moliyalashni ko'zda tutuvchi loyihaviy moliyalashtirish asosida 150 million AQSH dollarigacha birinchi navbatdagi ta'minotli kredit ajratish. Mazkur loyiha, shuningdek kutilayotgan tijorat kompaniyalariga kredit beruvchi muassasalar hisobiga tijorat kompaniyalariga kredit berish faoliyatini ham o'zi ichiga oladi.

## Loyiha maqsadi

Bu "ACWA Power" kompaniyasi va O'zbekiston hukumati hamkorlikda ishlab chiqilgan, mamlakatning elektr energiyasi ishlab chiqarish sohasiga xususiy investitsiya jalb qilish bo'yicha sa'y-harakatlari doirasidagi shamol energetikasi bo'yicha ilk tajriba loyihalardan biridir. Ushbu loyiha elektr ta'minotini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan ta'sir doirasi ancha keng bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, u mamlakatning issiqlik elektr stansiyalariga yuqori darajada bog'lanib qolish miqyosini kamaytirish barobarida past uglerodli rivojlanish bosqichiga o'tishiga yordam beradi.

## O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'sirining bahosi: 75

Mazkur loyihaning o'tish davri ta'siri "Yashil o'tish davri ta'siri" sifatiga asoslangan bo'lib, u O'zbekiston energetika tizimiga 500 MVt qo'shimcha shamol energiyasini yetkazib berish imkonini beradi. Shuningdek, u inklyuziv o'tish davri ta'siri xususiyatiga ega, chunki loyiha (i) shamol energetikasi sohasida akkreditatsiyadan o'tgan o'quv dasturini joriy etish va (ii) qayta tiklanuvchi energiya sohasida yangi paydo bo'layotgan ikkita kasb uchun milliy kasbiy ko'nikmalar standartlari va ta'lim standartlarini ishlab chiqish orqali yoshlarni tajriba va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshiradi.

## Mijoz haqida

ACWA POWER BASH WIND MCHJ chet el korxonasi

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan va Saudiya Arabistonining "ACWA Power" aksiyadorlik kompaniyasiga ("ACWA Power") (avvalgi nomi "International Company for Water and Power" kompaniyasi) tegishli bo'lgan, faqat shu loyihani amalga oshirish maqsadida tashkil qilingan maxsus maqsadli kompaniya qarz oluvchi hisoblanadi.

"ACWA Power" elektr energiyasi ishlab chiqarish, suvni chuchuklashtirish hamda yashil vodorod ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro loyihalar ishlab chiquvchi kompaniya sanaldi.

## YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

150 000 000,00 AQSH dollari

## Loyihaning umumiy qiymati

709 000 000,00 AQSH dollari

## Qo'shimchalilik sharti

YTTB ayni paytda tijorat manbalari bozorida muqobili bo'lmagan uzoq muddatli moliyalashtirishni oqilona shartlar asosida taklif etadi. YTTB mazkur kredit uchun o'rtacha bozor ko'rsatkichidan uzoqroq muddat taklif qiladi, bu esa Loyihani tizimlashtirish va o'tish davri ta'sirining uzoq muddatli maqsadlariga erishishni ta'minlash uchun zarurdir.

Bank Loyihani moliyalashtirish asosida uzoq muddatli birinchi navbatdagi kreditni taqdim etuvchi boshqa muqobili bo'lmagan shartlarda innovatsion moliyalashtirish tuzilmasini hamda taklif etadi va O'zbekiston bozorida birinchi marta YTTBning A/B kredit tuzilmasi doirasida tijorat banklarini jalb qiladi.

YTTBning mazkur Loyihada ishtirok etishi sektor yoki mamlakat darajasida tartib-qoidalar, sohaviy, institutsional yoki me'yoriy o'zgarishlar yoxud amaliyotda takomillashuvlarga olib keladi. Ushbu Loyiha mamlakatning qayta tiklanuvchi energetika sektori uchun muhim

bosqich sifatida qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bo'yicha tajriba loyihasi sifatida xizmat qiladi.

## Ekologik-ijtimoiy xulosa

A toifasiga kiritildi (ESP 2019). 500 MVt quvvatga ega ikkita yangi shamol elektr stantsiyasi (turli hududlardagi Bosh va Jonkeldi SHES) va 290 km dan ortiq yuqori kuchlanishli elektr uzatish havo liniyalarini tarmoqqa ulash infratuzilmasining birgalikda rivojlanishi ehtimoliy muhim ekologik hamda ijtimoiy ta'sirlar va xavflar, xususan, biologik xilma-xillik, yer va undan foydalanuvchilarning daromad manbalariga ta'sir qiladi. Shu sababli, u YTTBning ekologik va ijtimoiy siyosatiga (ESP) muvofiq ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholashni (ESIA) talab qilishi barobarida uni Direktorlar kengashi tomonidan ko'rib chiqilishidan 60 kun oldin oshkor qilish kerak bo'ladi. Har bir SHES uchun ESIA to'plami 2022-yil 20-mayda YTTB va homiyning veb-saytlarida e'lon qilingan. Yangilangan ESIA 2022-yil 30-sentabrda homiyning veb-saytiga yuklandi va muhim o'zgarishlarning qisqacha mazmuni YTTBning ESIA veb-saytida e'lon qilindi; qilingan o'zgarishlar avval e'lon qilingan ESIA'ga zid kelmaydi va uning o'ziga xos jihatlari yanada rivojlantirish orqali dastlabki ESIA xulosalari va taxminlarini qo'llab-quvvatlaydi va tasdiqlaydi. Oshkor qilish davrida mahalliy manfaatdor tomonlar bilan bank xodimlari shaxsan ishtirok etgan qo'shimcha ommaviy maslahatlashuvlar o'tkazildi. Atrof-muhit va ijtimoiy jihatlarni boshqarish bo'yicha qo'shimcha rejalar homiyning direktorlar Kengashi oldidagi majburiyatlari doirasida oshkor qilinganidan so'ng ishlab chiqilgan. Bank maslahatlashuvlar jarayonida bank ornitologiyaga ixtisoslashgan yetakchi nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib bordi. ESIA'ni tayyorlash va oshkor qilish jarayonida jamoatchilik tomonidan hech qanday jiddiy tashvishlar bildirilmagan.

Kreditorlar Loyiha uchun xalqaro maslahatchi yolladi va u maslahatchi ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD), jumladan, mijozning atrof-muhitga ta'sirini baholash hujjatidagi (ESIA) kamchiliklar tahlili, Loyihalar va unga bog'liq infratuzilmalarning umumiy ta'sirini baholash, aholi salomatligi va xavfsizligi, turmush sharoitiga ta'siri, Loyihadagi qurilish va ekspluatatsiya jarayonida genderga oid va mehnat risklari, ta'minot zanjiri risklari kabi tahlillarni o'tkazdi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza ("ESDD") boshqa kreditorlar, jumladan OTB bilan hamkorlikda amalga oshirilgan.

Bosh SHES ekologik jihatdan ta'sirchan zonaga yaqinroq yerda joylashgan bo'lib, uning hududi qushlar dunyosi qo'riqlanadigan joyga (Oyoqog'itma ko'li – Qushlar yashaydigan muhim hududlar (QYMH)) yondosh hisoblanadi. YTTBning Ekologik va ijtimoiy ekspertizasi (ESDD) qushlar faunasiga ehtimoliy ta'sirini qo'shimcha tahlil qilish hisoboti va qushlar bilan to'qnashuv xavfini baholash asosida holatni yumshatish choralarini ko'rish ishlarini o'z ichiga olgan. Biologik xilma-xillik bo'yicha dastlabki tadqiqotlar ushbu elektr stansiyalar hududida mavjud bo'lgan barcha turlar, shu jumladan qizil ro'yxatga kiritilgan turlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni, shuningdek, muhim yashash joylarini mustaqil baholashni o'z ichiga olgan. Loyiha mahalliy va jahon darajasidagi ornitologlar ishtirokida keng qamrovli ta'sirni baholadi, ular shamol elektr stantsiyalaridan foydalanish bilan bog'liq to'qnashuv xavfini ilg'or xalqaro sanoat amaliyotiga muvofiq batafsil tahlil qilib, tegishli yumshatish choralarini ishlab chiqdi. Bundan tashqari, mahalliy va xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari, xususan, Birdlife International (Buyuk Britaniyadagi bosh idorasi) va ularning

O'zbekistondagi mahalliy hamkori bilan maslahatlashuvlar, shuningdek, turbinalarni siljitish va talab asosida o'chirish (SDOD) kabi ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha aniq tavsiyalari ESIA va Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini ("ESAP") yakunlashda hisobga olingan. ESDD asosida, qushlar yashaydigan muhim hududlar (QYMH) yaqinligi sababli, ehtiyot chorasi sifatida QYMHdan kamida 2 km dan ozroq masofada va burgut, jo'rchi va itolg'i kabi muhim turlarning ma'lum bo'lgan uyalash joylaridan kamida 750 m masofada turbinalarning qo'shimcha siljitish amalga oshirildi; turbinalarning dastlabki soni sezilarli darajada kamaydi. ESAP'da Bosh SHESda qushlar bilan to'qnashuvning oldini olish uchun butun shamol elektr stantsiyasi uchun zamonaviy sensor-kamerali o'chirish uskunasi — Identiflight tizimini joriy etish zarurligini ta'minlash masalasi kiritilgan.

Shuningdek, elektr uzatish havo liniyalarining ta'siri baholandi va qushlar uchun potentsial xavf zonalarining oldini olish uchun tegishli yo'nalish o'zgartirildi, qushlarning elektr toki urishining oldini olish bo'yicha qushlar uchun xavfsiz simyog'ochlar va qushlarni qo'rqitish moslamalari kabi qo'shimcha choralar taklif qilindi. Ko'payotgan qushlarini himoya qilish rejasi, Florani saqlash bo'yicha harakatlar rejasi, Sudralib yuruvchilarni ko'chirish rejasi, To'qnashuvlar xavfini boshqarish rejasi, Jonivorlarning qurilishdan keyingi nobud bo'lishlarini monitoring qilish rejasi va Chorvachilikni boshqarish rejasi hamda kompensatsiya dasturini o'z ichiga oluvchi Biologik xilma-xillikni boshqarish rejalarini to'plami ishlab chiqildi. Umuman olganda, Bank loyihami biologik xilma-xillikning sof yo'qotishlari/sof o'sishining yo'qligini va shu bilan 6-loyiha shartlariga (PR 6) to'liq mos kelishini ta'minlaydigan tarzda ishlab chiqqan.

Loyihalar mahalliy chorvadorlarning loyiha uchastkalari ichida iqtisodiy va jismoniy harakatlanishiga hamda ularning yaylovdan foydalanish tartibining vaqtincha buzilishiga olib keladi; Bosh SHES "Ko'kcha" MChJning umumiy yaylov maydonining taxminan 0,053 foiziga ta'sir qiladi (10 ta chorva boquvchi tomonidan foydalaniladi). Elektr uzatish havo liniyalari yo'lida yerdan foydalanuvchilarning aksariyatiga qisqa muddatli vaqtinchalik ta'sir sezilishi mumkin (qurilish davrida), ammo ular elektr uzatish havo liniyalaridan foydalanish bosqichida bu yo'llardan bema'lol dehqonchilik va chorvachilik faoliyatlarini davom ettirishlari mumkin. Loyihaning aholi daromadlariga ta'siri cho'ponlar, dehqonlar, yer egalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashgan holda ishlab chiqilgan Loyiha hududidan ko'chirish harakatlari rejalarida belgilangan adolatli kompensatsiya paketlari va qo'shimcha hayotni tiklash dasturlari bilan bartaraf qilinadi.

Loyihalar, shuningdek, qurilish bosqichida ishchi kuchi oqimini va pudratchi ishchilarining loyiha obyektidagi mehnat sharoitlari, shu jumladan vaqtinchalik turar joy bilan bog'liq mehnat xavflarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu xavflarni bartaraf etish uchun Loyihalar uchun ishlab chiqilgan Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv mexanizmida ("ESMF") Loyihalarni amalga oshirish davomida ta'sirlarni kamaytirish choralari va monitoring talablari ko'rsatib o'tilgan. Bunga qo'shimcha ravishda, qishloq joylariga ishchi kuchining katta oqimi va gender asosidagi zo'ravonlik va tazyiq (GAZT) bilan bog'liq bo'lgan sohaviy xavf profilini hisobga olgan holda, qarz oluvchilar GAZT xavfini bartaraf etish uchun GAZT siyosati va xulq-atvor qoidalarining ijrosini amalga oshiradilar.

Shamol elektr stansiyalarining asosiy yetkazib beruvchilari va ularning yetkazib beruvchilari uchun yetkazib berish zanjiri xatarlarini batafsil baholash ularning ta'minot zanjirida bolalar va majburiy mehnat xavfi to'g'risida hech qanday dalil yo'qligini isbotladi. Shamol elektr

stansiyalari qat'iy ta'minot zanjiri siyosati va amaliyotiga ega bo'lib, ular yetkazib beruvchilardan o'z faoliyatidagi mehnat xatarlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha asosiy yetkazib beruvchilari bilan tuzilgan shartnomalarga kiritilgan xulq-atvor qoidalarini ham o'z ichiga oladi. Loyihalar uchun qabul qilingan boshqa yumshatish choralarga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi: (a) Kompaniyadan yetkazib beruvchilarni tanlash bo'yicha mas'uliyatli siyosatni o'rnatishni hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha shartnomalar tuzishdan (EPC) SHESga va ularning asosiy yetkazib beruvchilariga rioya qilinishini ta'minlashni talab qiluvchi ESAP harakatlari; (b) EPC, SHES va ularning asosiy yetkazib beruvchilari tomonidan o'z faoliyatida majburiy mehnatning har qanday shaklini taqiqlash to'g'risidagi deklaratsiyalar va xulq-atvor qoidalarini qabul qilish; (c) shartnomada ko'rsatiluvchi, o'rnatilishi kerak bo'lgan shamol turbinasi ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish/yig'ishda ishtirok etuvchi asosiy yetkazib beruvchilar ro'yxati; d) EPC shartnomasiga qo'shilgan qonuniy majburiyatlar, EPC'ni asosiy yetkazib beruvchilarning xatarlarining xaritasini tuzish va keyin baholashni yakunlash, shuningdek qurilish paytida ularning bajarilishini kuzatib borish va hisobot berishni davom ettirish majburiyatini yuklaydi; (e) tuzatish harakatlari rejasidan foydalangan holda, ta'minot zanjirini kompleks tekshiruv paytida aniqlangan yoki kelajakdagi auditlarda aniqlangan nomuvofiqliklarni o'z vaqtida bartaraf etish; (f) kompaniyaning majburiy mehnat xavfi yoki SHES va uning asosiy yetkazib beruvchilariga nisbatan ayblovlar yuzaga kelganda YTTBni xabardor qilish majburiyati; va (g) yuqorida sanab o'tilgan asosiy qoidalarga jiddiy rioya qilinmasa, shartnomalarga qo'shilgan tugatish bandlari. Koyihalovchi kompaniya ta'minot zanjirini boshqarish rejasida (SCMP) qabul qilingan majburiyatlarga muvofiq ta'minot zanjiri xavfini SHESdan foydalanish bosqichida kuzatishda davom etadi.

ESDD loyihaning tuzilishi bankning loyiha talablariga (PR) mos kelishini tasdiqladi va Kompaniya loyihalarni amalga oshirish muddati davomida ESAP talablarini bajarish uchun institutsional salohiyatini yanada mustahkamlashga rozi bo'ldi. ESAP Direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlanishidan oldin kompaniya va boshqa kreditorlar bilan kelishildi.

Bank ushbu talablarning samarali bajarilishini ta'minlash uchun yarim yillik Ekologik va ijtimoiy hisobotlar va obyektlarga muntazam tashriflar orqali loyihalarni monitoring qilishda davom etadi.

Loyihaning ekologik va ijtimoiy ta'sirini baholash hisoboti bilan quyidagi havolada tanishish mumkin: <https://www.ebrd.com/work-with-us/projects/esia/uzbekistan-bash-wpp.html>

## Texnik ko'mak va grant asosida moliyalashtirish

Ko'zda tutilmagan.

## Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Sachin Abhyankar  
SAbhyankar@acwapower.com  
+971 58 634 6493

Loyihaning qisqacha mazmuni so'nggi marta yangilangan sana

2022-yil 4-noyabr

## O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

## Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: [projectenquiries@ebrd.com](mailto:projectenquiries@ebrd.com)

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: [procurement@ebrd.com](mailto:procurement@ebrd.com)

## Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

## Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

## Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va

barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda [compliance@ebrd.com](mailto:compliance@ebrd.com) elektron pochta orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralarda ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonim tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

## Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin..

## Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi ya'ni IPAM yordamida o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

IPAM, arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning maqsadi loyihaning manfaatdor tomonlari o'rtasida ekologik, ijtimoiy va axborotni ommaviy oshkor qilish bo'yicha muammolarini hal etishdagi murosani qo'llab-quvvatlash, Bank o'zining [Ekologik va ijtimoiy siyosatiga](#) yoki [Axborotdan erkin foydalanish siyosatining](#) loyihaga oid tartiblariga rioya qilayotganini tekshirish va zarur hollarda, kelajakda ushbu qoidalarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, shuningdek, Bank tomonidan kelgusida bunday holatlarning oldini olishdan iborat.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb-saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun [ipam@ebrd.com](mailto:ipam@ebrd.com) elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.

